

ALISHER NAVOIYNING “VAQFIYA” ASARI HAQIDA.

*Farg‘ona davlat universiteti Filologiya
fakulteti 23.90A guruh talabasi
Abdullayeva Muazzam*

Anotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Vaqfiya” asari asosida uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, xalq farovonligi yo‘lida amalga oshirgan xayriya ishlari, vaqf mulklarining huquqiy va iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi. Asarda Navoiyning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi, vaqf tizimini mukammal tashkil etishdagi yondashuvi hamda ijtimoiy adolat haqidagi qarashlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Vaqfiya, vaqf, mahdudot, ijtimoiy faoliyat, davlat boshqaruvi, xayriya.

Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk namoyandasi bo‘lishi bilan bir qatorda, XV asr ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim o‘rin tutgan yirik davlat arbobi sifatida ham tanilgan. Uning faoliyati faqat adabiy meros bilangina chegaralanmay, mamlakat obodligi, xalq farovonligi va ilm-ma‘rifat rivojiga qaratilgan keng ko‘lamli ishlari bilan ajralib turadi. Bu jihatlar Navoiyning “Vaqfiya” asarida hujjatli va badiiy uslub uyg‘unligida yoritilgan.

“Vaqfiya” asari Navoiy shaxsining jamiyat oldidagi mas‘uliyatini, uning ijtimoiy adolat va insonparvarlik g‘oyalariga sodiqligini ko‘rsatib beruvchi muhim manbadir.

“Vaqfiya” 1481–1482-yillarda yozilgan bo‘lib, unda Navoiyning o‘z mablag‘lari hisobidan qurdirgan binolari va vaqf qilib qoldirgan mulklari hujjatlashtirilgan. Asar an‘anaviy tarzda hamd, na‘t va Sulton Husayn Boyqaro madhidan iborat muqaddima bilan boshlanadi. Bu muqaddima Navoiyning podshohga sadoqati va davlat boshqaruvidagi hamkorligini ko‘rsatadi.

Asar mazmunan ikki yirik qismga bo‘linadi:

Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyati, saroydagi mavqei va siyosiy mas‘uliyati aks etgan o‘rinlar.

Xayriya ishlari, vaqf yerlari, ularning boshqaruv tartibi va moliyaviy ta‘minotiga oid qism.

Bu tuzilish “Vaqfiya”ni nafaqat adabiy, balki tarixiy-huquqiy manba sifatida ham qimmatli qiladi.

“Vaqfiya”da Navoiy mamlakat obodligi bilan xalq baxt-saodati chambarchas bog‘liq ekanini ta‘kidlaydi. Uning fikricha, zulm, hirs va nafs hukmron bo‘lgan jamiyatda taraqqiyot bo‘lmaydi. Shoirning:

El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas
degan fikri uning ijtimoiy qarashlarining asosini tashkil etadi.

Navoiy masjid, madrasa, shifoxona va boshqa ijtimoiy inshootlarni qurdiribgina qolmasdan, ularning uzluksiz faoliyatini ta'minlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratgan. Bu esa uning ishlarida tasodifiylik emas, balki puxta reja va uzoqni ko'zlagan siyosiy tafakkur mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Asarda madrasalarda faoliyat yuritgan mudarrislar va tahsil olayotgan talabalar soni, ularga belgilangan maosh va nafaqalar juda aniq ko'rsatib beriladi. Talabalar ijtimoiy ahvoliga qarab a'lo, vasat va adno guruhlariga bo'linib, har bir toifaga mos ta'minot belgilangani Navoiyning adolatli yondashuvidan dalolat beradi.

Bu holat XV asr sharoitida ilm-fan rivoji uchun yaratilgan ilg'or ijtimoiy tizim mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Vaqfiya“ asarining ikkinchi qismi ya'ni „Mahdudot“ qismida Navoiy vaqf, vaqf huquqi kabi o'zining moliyaviy ibodati bilan yaqindan tanishtirishga harakat qilgan. Mahdudot (Mahdudning ko'plik shakli bo'lib, cheklangan, chegaralangan, tayin qilingan degan ma'nolarni bildiradi) iqtisodiy atama, tushuncha bo'lib, chegaralangan, atrofi o'ralgan, atrofi aniqlangan joylar, er-suv va boshqa mulklar degan lug'aviy ma'noni bildiradi.

Navoiy mahdudotda o'z qalami bilan vaqf qilingan barcha ko'chmas mulklarining ro'yxatini, mulk turlarini, joylashgan hududlari nomini birma-bir, tartib bilan yozib qoldirgan. Chunonchi: „... vaqf qilingan mahdudlarkim, shahr va tavobindadur, mujmalan (qisqa) mazkur bo'lur va tafsili forsi vaqfnomalardakim, muqarrar aytilibdur.“ Qizig'i shundaki, u o'z mahdudotlaridan olingan daromad, tushumni o'z mablag'lari hisobidan qurdirgan masjid, madrasa, shifoxona, rabot, xonaqoh va shu kabi yuzlab binolar ta'minoti uchun belgilab qo'ygan hamda vatan, yurt obodligi, xalq manfati yo'lida og'ishmay sarflagan.

Vaqfiyaning mahdudot fasli aynan rasmiy uslubda bitilgan bo'lib, bu holat adibning mazkur hujjatli faslda vaqf qilingan ko'chmas mulk turlarini sharhlashda qo'llagan ifoda va bayon tarzida yaqqol ko'rinadi.

Navoiyning mahdudotda bitishicha, uning vaqf qilingan barcha turdagi ko'chmas mulklari qonuniy, ya'ni „shar' tariqi“ va qonun himoyasida bo'lib, ko'chmas mulklarining barcha tafsiloti vaqf hujjatlarida fors tilida aniq yozilgani hamda guvohlar ishtirokida qozi muhri bilan tasdiqlab qo'yilgani aytilgan. Alisher Navoiy vaqflarini musulmonlarga shunchaki topshirib qo'ymagan, har bir vaqf molining iste'moli shartlarini ham bayon qilgan. Belgilangan maoshga haqli bo'lsa bo'lmasa berilavermagan, shartlar bajarilmasa kamaytirilgan yoki vaqf hududidan chiqarib yuborilgan. Shu bilan birga vaqf shartlari bitilgan „Vaqfiya“ asarini har o'ttiz yilda yangilab turishni tavsiya qilgan.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, “Vaqfiya” asari Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari, davlat arbobi sifatidagi mas’uliyati va xalqparvarlik faoliyatini yorituvchi nodir manbadir. Asar orqali Navoiyning jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda ilm, adolat va saxovatni asosiy omil deb bilgani ayon bo‘ladi. “Vaqfiya” Navoiyni nafaqat buyuk shoir, balki yuksak ijtimoiy tafakkur egasi bo‘lgan davlat arbobi sifatida ham namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. Vaqfiya. (Matn va sharhlar bilan). – Toshkent: Fan, 2000.
2. Sirojiddinov Sh., Yusupova D., Davlatov O. Navoiyshunoslik. – Toshkent: Tamaddun, 2019.
3. Hayitmetov A. Alisher Navoiy va ijtimoiy tafakkur. – Toshkent: Fan, 1983.
4. Komilov N. Tasavvuf va mumtoz she’riyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009.
5. Erkinov A. Alisher Navoiy davri madaniy muhiti. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
6. Abdullayev A. O‘zbek adabiyoti tarixi. 2-jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
7. Valixo‘jayev B. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2010.
8. Rustamov A. Navoiy asarlari tili va uslubi. – Toshkent: Fan, 1972.
9. Atakhanovna Y.G. On the creation of educational content and the peculiarity of its use. Anglisticum Journal, 2020.
10. Atakhanovna Y.G., Azada A. Features of the use of mixed education. E-Conference Globe, 2021.